

Diloromxon RUSTAMOVA

QIZG‘ALDOQ



«Farg‘ona» nashriyoti,
2015-yil

UO'K: 821.512.133-1 - Ўзбек адабиёт тарихи

KBK: 84(50')7

R92

Rustamova, Diloromxon.

R92 QIZG'ALDOQ: she'rlar, topishmoqlar/adabiy-badiiy nashr; D.Rustamova – Farg'ona: «Farg'ona» nashriyoti, 2015-yil. – 28 bet.

Mazkur to 'plamda bolalar uchun mo 'ljallangan she'rlar va topishmoqlar o'rinni olgan. Ularda bolalarcha soddalik, beg 'uborlik aks etadi. Dunyoga kichkintoylar ko'zi bilan qaragan ijodkor ma'lum ma'noda bunga erisha olgan ham. She'rlarni o'qir ekansiz, qalbingizda beixtiyor bolalik tasavvurlari uyg'onganini sezasiz.

To 'plam maktab yoshidagi o'quvchilar uchun mo 'ljallangan.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')7

ISBN: 978-9943-4275-6-3

10 43827
091

2015/104	Alisher Navoiy
A6481	nemidagi
	O'zbekiston MK

©D.Rustamova – 2015-y.

SO‘Z BOSHI

Xalqimiz – bolajon xalq. Barcha yaxshilik, ezguliklarni birinchi navbatda farzandiga ilinadi... Yurtboshimiz tomonidan aytilgan «Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart», degan fikri zamirida ham bolajon, bolaparvar elimizning asl orzu-niyatlari mujassam bo‘lsa, ajab emas...

Shirintil bolajonlar uchun ijod qilish, ularga atab she’rlar yozish, avvalo, rosmana baxt bo‘lsa, ikkinchidan, ijodkordan katta mas’uliyat talab qiladi.

Diloromxonning she’rlari, topishmoqlari bilan tanishib, juda xursand bo‘ldim. Keyingi paytda bolalar adabiyotiga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olib, rosti, quvondim.

Uning she’rlarida bolalarcha poklik, soddalik, samimiyat va ozgina o‘yinqaroqlik bor. Topishmoqlardagi o‘ziga xos mantiq, mazmun ham bolalarbop, beg‘ubor. Kelgusida Diloromxondan rang-barang she’rlar kutib qolamiz va u bu tilakni amalga oshirishiga ishonamiz.

*Anvar YUNUS,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.*

VATANIM QUTLUG‘ YOSHDA!

«Vatan aziz, vatanni sev», – deydi momom,
«Vatan – sening kindik qoning», – deydi bobom.
Bugun shonli o‘lkamizda ulug‘ ayyom –
Go‘zal yurtim – O‘zbekiston qutlug‘ yoshda.

Chamanzorda shodon uchar kapalaklar,
Osmonni har turga solar kamalaklar.
Totuv yurtda pishar ekan sumalaklar,
Mening yurtim – bog‘u-bo‘ston qutlug‘ yoshda.

Bugun ko‘rib havas qildim jamolingni,
To tirikman, tilab o‘tay kamolingni.
Hech qanday yov buzolmaydi qo‘rg‘oningni,
Mening yurtim – jannatmakon qutlug‘ yoshda.

Mevalardan egiladi daraxtlari,
Muhtasham har imoratda laylaklari.
Dovrug‘iga dovrug‘ qo‘shar ziyraklari,
Mening yurtim – hur guliston qutlug‘ yoshda.

Tuprog‘ida avliyolar xoklari bor,
Odamlari qalblarida orzu bisyor.
Bundayin el hech qayerda bo‘lmas takror,
Mening yurtim – dong‘i doston qutlug‘ yoshda.

ONA

Agar hayot daryo bo‘lsa,
Unda suvsiz, onajon.
Farishtalar ayol bo‘lsa,
O‘sha sизsiz, begumon.

Mehringizning harorati
Ziyo bo‘lar ko‘zimga,
Duoyingiz ijobati
Sherik bugun o‘zimga.

Sochlaringiz oqlarida
Mening dardim, g‘amim bor.
Onajonim, borlig‘imsiz,
Mehrim sizga betakror.

BAHOR

Yana keldi o‘lkamga bahor,
Muzlar erib, jonlandi anhor.
Qaldirg‘ochlar qanotin yozdi,
Kapalakka baxt berdi gulzor.

Qizg‘aldoqlar ko‘taradi bosh,
Doim ko‘kda kuladi quyosh.
Dov-daraxtlar tugganda novda,
Shudring to‘kar har sahar ko‘z yosh.

Tong chog‘ida qushlar navosi
Yoqadi-yey biram qulqqqa.
Bunchalar sof bahor havosi,
Jon beradi ko‘m-ko‘k o‘tloqqa.

Kelishingni qanchalar kutdim,
Gullaringga bo‘lib intizor.
Yo‘llaringga borimni tutdim,
Xush kelibsan yurtimga, bahor!

SOG‘INCH

Borim fido yalpizlaringga,
Osmonlarda qaldirg‘och kuyi.
Boychechaklar o‘pdi labimdan,
Kapalaklar bir-birin quvdi.

Kimlar sog‘inmaydi bahorni?!
Rayhon, hiding dimoqda qotdi.
Ko‘zim quvnar chechaklaringdan,
Bulbul, kuying judayam yoqdi!

Ana, yomg‘ir yog‘di savalab,
Ko‘nglim osmon ertaklaringdan.
Tog‘ bag‘riga otilaman-u,
Gul teraman etaklaridan.

Quyosh yuzin panaga oldi,
Kamalak bo‘y cho‘zar tovlanib.
Go‘zallikdan tilim lol qoldi,
Gul bahorni qoldim men tanib...

Kimlar sog‘inmaydi bahorni?!

* * *

Derazadan termulaman jim,
Erinmasdan tomchilar yomg‘ir.
Izg‘irindan entikar qalbim,
Bu jimjitlik naqadar og‘ir.

Yuragim g‘ash, ko‘zlarim ma’yus,
Ko‘ngilda dard, dilginam faqir.
Tinay demas yomg‘ir ham hanuz,
Men bahorni sog‘indim, axir.

Zeriktirdi qishning qorlari,
Yo‘llarimni berkitar tuman...
Ko‘kka yetdi yurak zorlari,
Gullar iforini kutaman.

Kuchayadi shodon yomg‘irlar,
Yuragimdan izg‘irin ketar.
Lablarimda erigan qorlar
Har nafasda bahorga eltar.

* * *

Bahor, juda chiroylisan,
Kamalak bo‘lgim keldi.
Bog‘laringda sollangan
Kapalak bo‘lgim keldi.

Qaniydi, chamanzorda
Qizil guling bo‘lsaydim...
Atirgulning yonida
Jamalak bo‘lgim keldi.

Mayli, bo‘lsam anhorlar,
Zilol suv oqib o‘tsa.
Lablarimda yalpizlar,
Bulbullar kelib o‘psa.

Qaldirg‘och bo‘lib uchsam,
Osmoningda charx urib.
Bulutlarga aylansam,
Yomg‘ir sochsam lab burib.

O‘riklarning gulida
Hidlari bo‘lib qolsam.
Yoki ishqqa aylanib,
Dillarga kirib borsam.

Bahor, sening bag‘ringda
Chuchmoma bo‘lgim keldi.
Osmoningda quyoshdek
Kun bo‘yi kulgim keldi...

QIZG‘ALDOQ

Dardlarimni bo‘lishgani
Yo‘l qo‘ymadi nomus-or.
Bahor, tezroq kela qolgin,
Qizg‘aldoqqa gapim bor.

Barglarida bir kechaga
Qolib ketsam qaniydi.
Gullaganda rangi bir xil
Yuragimni taniydi.

Men Muhammad topolmagan
Peshonasin topardim.
Quchog‘imga bosib-bosib,
Ko‘zlaridan o‘pardim.

Qo‘lim tegsa, to‘kilmasdi
Gul barglari berib jon.
Yuragimda unar mening
Qizg‘aldoq‘im, lolajon!

YOZ

«Laylak keldi – yoz bo‘ldi,
Qanoti qog‘oz bo‘ldi...»
Anhorlarda cho‘milish
Shu kunlarda soz bo‘ldi.

O‘rik, olma, olchani
Quyosh bobo pishirdi.
«Tez yig‘ib oling, qani» –
Dehqonlarni shoshirdi.

Qorlar erib qirlarda,
Anhorlarda chopqillar.
Quyosh o‘ynab suv bilan,
Aksini ko‘rib yayrar.

Laylak keldi, yoz bo‘ldi,
Yoz kelgani soz bo‘ldi!

* * *

Daraxtlar barglarin bo'yar yomg'iri,
Tomchilar savalar zaminni tinmay.
Atrofni tutmoqda behilar hidi,
Yana kuz kelyapti asta, bilinmay.

Gul yuzli gullar ham qo'ydilar kulmay,
Yerlarni berkitdi to'kilgan xazon,
Bulutlar osmonda qop-qora zulmat,
Demakki, yurtimda oltin kuz mehmon.

KUCHUKCHAM

Yurar doim ortimdan,
Qolgin desam qolmaydi.
To tonggacha uyimiz
Qo'riqlaydi, tinmaydi.

Meni ko'rsa keladi
Dumchasini o'ynatib.
Bir qiliqlar qiladi,
Ko'zlarimni quvnatib.

UXLAB QOLAMAN...

Oqshom chog‘i ayajonim:
«Kundaliging ko‘rsat», – dedi.
Oshib ketdi hayajonim,
Baholar «uch», «ikki» edi.

Ko‘p o‘yladim, bersammikan,
Yo bermayin aldasam.
Boshqasini tutsammikan...
Endi shoshmay o‘ylasam.

Men ertadan yaxshi o‘qib,
Har kuni «besh» olaman.
Ayajonim shoshmay tursin,
Bugun uxlab qolaman.

ОY

Juda yoqadi menga
Tunda porlab chiqsa oy.
Chiroy berar zaminga
Uning nuri tushgan joy.

Jimirlagan yulduzlar –
Oymomoning bolasi.
Yuzlashadi har zamon,
Quyoshdir dugonasi.

Tarovati bilan u
Qo‘yar meni sehrlab.
Uzolmayman ko‘zimni
Va boqaman mehr-la.

Goho tilik qovunday
Osilib turar ko‘kda.
To‘lganida yayrayman,
Eh, oyning tengi yo‘q-da!

UCHUVCHI BO‘LAMAN

Men hali katta bo‘lsam,
Osmonlarda uchaman.
Zavq bilan qanot qoqib,
Bulutlarni quchaman.

Uchuvchining libosi
Kiysam, juda yarashar.
O‘zimdayin bolalar
Havas bilan qarashar.

Doimo yaxshi o‘qib,
Zo‘r uchuvchi bo‘laman.
Uzoqni yaqin qilib,
Yurtga xizmat qilaman!

QO‘G‘IRCHOQ

Alla aytar kichkina Nargiz,
Qo‘g‘irchog‘in o‘pib-suyarkan.
«Odobli bo‘l, qizim», – der goho
«Farzand»iga baxtlar tilarkan...

Deyishadi kattalar doim:
«O‘rigidan mag‘zi ham shirin».
Qo‘g‘irchoqlar omon bo‘lsin-da,
Ular bolalarning jon-dili!

QUYOSH

Ko‘kda yarqirar olmos,
Pishirar olma, gilos.
Qarasam ko‘z qamashar,
Nomin quyosh atashar.

Dala-dashtga berar jon,
Nurin ayamay obdon.
Taftidan yonar yuzim,
Nuriga qurban o‘zim.

Chet elliklar yurtimni
Quyoshli, deb atashar.
Tog‘ tutaman ko‘ksimni,
Bu nom bizga yarashar.

Ona yer, saxiy quyosh,
Tiniq osmon, tinch diyor.
Asli quyosh vatani –
O‘zbekiston baxtiyor.


* * *

Kuchukcham, hoy, kuchukcham,
Burunchasi puchuqcham.
Sirlarimni sotmas hech
Yurakchasi quduqcham.

Meni ko‘rsa o‘ynaydi
Dumchasini silkitib.
Tishlarini qayraydi
Chumchuqlarni hurkitib.

Kechalari uxmlamay
Uyimizni poylaydi.
Kunduz oftobda yotib
Qilgan ishin o‘ylaydi.

Kuchukcham, hoy kuchukcham,
Qiliqlari zo‘r biram.
Charchashni hech bilmaydi,
Bilmam, qachon uxlaydi?



OTAMNING QIZIMAN

Buvijonim erkalab,
«Ko‘rar ko‘zim», deydilar,
«Ona qizim», deb bobom,
«Shirin so‘zim», deydilar.

Mehringizdan quvonib
Osmonlarga uchaman.
Onajonim bag‘riga
Boshim qo‘yib quchaman.

Erkalasam dadamga,
«Oppoq qizim», deydilar,
Qiliqlarim xush yoqib,
«Xuddi o‘zim», deydilar.

HAR TONG...

Har kuni erta bilan
Oyijonim uyg‘otar.
«Maktabga kech qolma», – deb,
Har tong bir xil so‘z qotar.

Onajonim mehnati –
Darsimga kech qolmayman,
A’lo baholar bilan
Ishonchlarin oqlayman.

Darsdan keyin ko‘chada
Bekorchidek yurish yo‘q,
Qulqosiz bolalardek
Yoqa yirtish, urish yo‘q.

O‘qishdan so‘ng sportni
Chin do‘stim deb bilaman.
Aka-opalarimdek
Yurtga xizmat qilaman!


QO‘ZICHOQQA

Qo‘zichog‘im, qo‘zichoq,
Ko‘zлari qora munchoq.
Shoshmay yozda tug‘ilgin,
Qishda ahvoling chatoq.

Qor yog‘ar, yomg‘ir yog‘ar,
Izg‘irin shamol yelar.
Yana ozroq sabr qil,
Yaqinda bahor kelar.

O‘zim asta ko‘tarib
Olib boray o‘tloqqa.
Yemish topib qo‘yganman
Sendek shalpangquloqqa.

TOPISHMOQLAR



Qanotida kamalak bor,
O'zi gulga o'xshaydi.
U shunchalar go'zal, afsus,
Bir zumgina yashaydi.

(Kapalak)

Bahor kelsa chamanzorda
Qo'nadi guldan gulga.
Mehnat qilib topgani
O'tadi qo'lidan qo'lga.




(Asalari)




Uni ko'rsam quvnar ko'zim,
Biri qosh-u, biri yuzim.
Gulzor, asli, usiz bo'lmas,
Ana, oshkor qildim o'zim.

(Gul)

Osmonda etar parvoz,
Chiqar undan kuchli ovoz.
Ninachiga o'xshar o'zi,
Eshigi bor, bordir ko'zi.



(Vertolyot)



Daryolarda yashaydi,
Suvga kalla tashlaydi.
Go'shti darmon hammaga,
Kiyimlari tangadan.


(Baliq)

U tuganmas xazinadir,
Ichi to'la dur-gavhar.
Senga omad, baxt keltirar,
Uni do'st deb bilsang gar.




(Kitob)

Sochlari taram-taram,
Turmagi go‘zal biram.
Tozalikni xush ko‘rar,
Yerda yotar xotirjam.



(Supurgi)



Yoqtiraman asalni –
U yo‘latmas kasalni.
Qishda doim uxlayman,
Baliq ovin boplayman.

(Ayiq)

Men judayam ayyorman,
Aldash bo‘lsa – tayyorman.
Dumginam go‘zal, biroq
Mashhur qilgan bo‘g‘irsoq.

(Tulki)

Doshqozonda biqirlar,
Asta qaynab, qiqirlar.
Tanga darmon hur malak,
Ha, topdingiz

(Sumalak)




Qovoq solib turishi
Yoqmaydi menga, ammo
U bo‘lmasa, yomg‘ir-u
Qor yog‘ishi muammo.



(Bulut)

Shal pangquloq oppog‘im,
Momiqqinam, yumshog‘im.
Sabzini xush ko‘radi,
Sakrab-sakrab yuradi.

(Quyon)



Hasharotni yeydilar,
Aziz mehmon ayvonga.
Mo‘tabar qush deydilar,
Do‘stdir asli insonga.
In qurar doim loydan,
Suv ichar uchib soydan.

(Qaldirg‘och)



TO'RTLIKlar

Qo‘g‘irchog‘im Sanobar
Xuddi gullardek lobar.
Adras ko‘ylak egnida,
Doimo kulib boqar.

* * *

Ayiqpolvon asalni
Barin paqqos tushirdi.
Asalari g‘azabda
Ko‘zlarini shishirdi.

* * *

«Alifbo»yim – oftobim,
Nurli yo‘l, mohitobim.
«Ona» so‘zin tanitgan
Ustozimsan, kitobim.

* * *

Ozod yurt farzandiman,
Baxtiyor dilbandiman.
Jannatmonand yurtimning
Ertasi, bol-qandiman!

Mundarija

So‘z boshi (<i>Anvar Yunus</i>)	3
Vatanim qutlug‘ yoshda!	4
Ona	5
Bahor	6
Sog‘inch	7
Derazadan termulaman jim...	8
Bahor, juda chiroylisan...	9
Qizg‘aldoq	10
Yoz	11
Daraxtlar barglarin bo‘yar...	12
Kuchukcham	12
Uxlab qolaman...	13
Oy	14
Uchuvchi bo‘laman	15
Qo‘g‘irchoq	15
Quyosh	16
Kuchukcham, hoy, kuchukcham...	17
Otamning qiziman	18
Har tong...	19
Qo‘zichoqqa	20
Topishmoqlar	21
To‘rtliklar	26

Adabiy-badiiy nashr

Diloromxon RUSTAMOVA

QIZG‘ALDOQ

(*She’rlar, topishmoqlar*)

Muharrir:

Hayotjon Boyboboyev

Tex. muharrir:

Nazirjon Hoshimov

Dizayner:

Sotvoldi Hasanov

Rassom:

Tursunali Ahmadaliyev

Nashriyot litsenziyasi: A.I.№ 162. 2009-yil 14-avgust.

Terishga berildi: 27.10.2014-y. Bosishga ruxsat etildi:
29.09.2015-y. Bichimi: 84x108_{1/32}. Nashriyot bosma tabog‘i:
0,75. Shartli bosma tabog‘i: 1,0. Times New Roman
garniturasи. Ofset usulida bosildi. Adadi: 750 dona. Bahosi
kelishilgan narxda. Buyurtma № 239.

«FARG‘ONA» nashriyoti.

150114. Farg‘ona shahri, Sohibqiron Temur ko‘chasi, 28-uy.

«PRINT LINE GROUP» bosmaxonasi.

100097. Toshkent shahri, Bunyodkor shohko‘chasi, 44-uy.